



ABDULLA AVLONIYNING “TURKIY GULISTON YOKI AXLOQ” ASARI HAQIDA.

Fozilova Matluba

Nizomiy nomidagi TDPU Maxsus pedagogika va inklyuziv ta’lim fakulteti
Oligofrenopedagogika yo’nalishi 3-kurs talabasi
<https://doi.org/10.5281/zenodo.11194862>

Annotasiya

Ushbu maqola Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari haqida. Va ulardagi ta’lim va tarbiyaning bog’liwigi. Tarbiya turlar va inson hayotidagi ahamiyati haqida.

Kalit so’zlari: Tarbiya, ta’lim, sabr, sadoqat, sog’lik, axloq


Abdulla Avloniy pedagoglik bilan bir qatorda maktablar uchun darslik ham yozgan. Abdulla Avloniyning “Birinch muallim”, “ikkinchi muallim”, “Turkiy guliston yohud axloq”, “Maktab gulistoni” kabi bir qator asarlari bir necha bor nashrdan chiqqan.

Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari o’zbek adabiyotining ajoyib namunasi Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq” asari Sa’diyning “Guliston” asariga o’xshatma sifatida yozilgan. Va bu haqida shoir: “Ban bu asari nochizonami bir necha muallim birodarlarimning iltijolari ila yozmoq va nashr qilmoqg’a g’ayrat va jasorat qilmish edim. Alhamdu lilloh val minna ikkinchi tab’ihada muvaffaq oldum, chunki Turkiston maktablarida o’z shevamizda (o’zbek tilida demoqchi) yozilmish mukammal” Axloq kitobining shunday asarga tashna va muhtoj ekanligi o’zum muallimlar jumlasidan o’ldig’imdan manga ham ochiq ma’lum o’ldi. Shuning uchun ko’p vaqtlar tajriba so’ngidan adibi muhtaram shayx Sa’diy usulida yozmoqni, garchi og’ir ish bol’sa ham, o’zimga muqaddas bir vazifa ado qilaroq bu kamchilikni oradan ko’tarmakni munosib ko’rdim». Demak, aytish mumkinki, “Turkiy Guliston yoxud axloq” Sa’diyning «Guliston» asari usulida o’zbek tilida yozilgan axloq kitobidir.¹

Abdulla Avloniyning “Turkiy Guliston yoxud axloq asari” 1913-yilda Toshkentda toshbosma yani litografik usulda bosmadan chiqdi. Bu asar yosh avlodning axloqli bo’lib tarbiyalanishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Abdulla Avloniy “Turkiy Guliston yoxud axloq” asarida axloq haqida yaxshilikka chaqiradigan yomonlikdan qaytaradigan ilmdir va u mezon tarozisida yaxshi xulqdan og’irog’i yo’q deya ta’kidlaydi. Axloq ilmining asosi tarbiya va tarbiyani

¹ Latif Xalilov





tabibga qiyos qiladi, bu bolaning tansiga yaxshilik dorisini ichirmoq kabidir deya yozadi adib Axloqning go'zaligi tarbiyaga bog'liq. chunki tarbiyaning axloqqa ta'siri bor. Tarbiyani bola tug'ilganidan boshlash lozim va bu ish bilan avvalo ona shug'ullanadi. ikkinchi tarbiya bilan esa ota, maktablar, madrasalar shug'ullanadi.

Insonning ta'lim olishi o'rganishi, o'rgatishi, o'qishi, o'qitishi uchun tananing sog'lomligi juda muhim. Shuning uchun biz tanamizga zarar yetkazadigan yomon illatlardan nari bo'lishimiz lozim. Fikr tarbiyasi insonning g'ayratli, shijoatli bo'lishiga sabab bo'ladi. Fikrning teran hal bo'lishi o'qituvchining bergan bilimiga, tarbiyasiga bog'liq. Insonlarga sharaf, baland darajani axloq tarbiyasi beradi. Kishi yoshligidan say harakatda g'ayratli bo'lishi zarur. Yalqov kishilar har narsadan mahrumdir. Qanoatli bo'lish hasad, tama, hirs xorlikni ham davosidir. Qanoat bir xazinadir uning naqdi kundan kunga oshadi. Ilm o'qish, yozishni bilish, yaxshi narsalarni o'rganmoqlik demakdir. Ilm inson uchun g'oyatda muqaddas va oliy fazilatdir. Hilim, yani yumshoq tabiatlilik axloq yuzasidan insonga endi kerakli narsadir. Intizomga rioya qilgan insonlarning ishi doim o'z vaqtida, tartibli bo'ladi. Vatanimizni siyish har birimizning burchimizdir. "Vatanni suymoq iymondandir." Sadoqatli insonlar o'z ishini sidqi dildan bajaradilar.

Sidq-u safoyi rostlig' o'lsa qarobating,
Shuldur jahonda rohat, fayz, saodating.
Olamda to'g'rilikcha yo'q odamning ziynati,
Qalbing alifdek o'ldimi, ayni sharofating.²

"Shul maqsadga mabni har bir so'zning oxiriga, ikki-uch band she'r ham yozdim va bu yozgan she'rimning orasida ba'zi arabiy, forsiy she'rlarning tarjima va mazmuni ham ko'rilur. Maorifparvar muallim birodarlarim meni bu asari o'jizonamni iltifotsiz qoldurmay, bu xizmati nochizonamni ko'zdan kechurub va bundan so'ng ham banim qalamim ila nashr o'linajaq kitoblarni lutfan maydoni ta'limga qo'yimoq ila barobar tabiiy o'lan nuqsonlarini tanbeh va tanqid qilmakda himmati maorifparvaronalarini bandadan darig' tutmasalar edi."³

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yohud axloq".
2. www.Ziyouz.com

² Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yohud axloq".

³ Abdulla Avloniy "Turkiy Guliston yohud axloq".

